
Buvayda tumani fermerlari paxta yetishtirish shartnomaviy rejani bajarishda vodiya birinchi bo'ldi.

Paxtachilikda o'ziga xos boy tajribaga ega bo'lgan Buvayda tumani fermerlari paxta yetishtirish shartnomaviy rejasini vodiya birinchi bo'lib bajardilar.

Joriy yilda tumanda 206 ta fermer xo'jaliklari tomonidan 5 ming gektar maydonda g'o'za parvarish qilinib, 18 ming 600 tonnadan ziyod paxta hosili topshirildi.

"Saminjon ota ASK", "Qo'ng'iroq zamin ko'rki", "Patilaxon", "Yulduz", "Alqor agrotex", "Sahovatli Bachqir zamini" kabi fermer xo'jaliklarida o'rtacha 50 sentnerdan ortiq hosil olinib, yuqori ko'rsatkichlarga erishildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, joriy yilda buvaydaliklar pilla va g'alla yetishtirishda ham vodiya birinchi bo'ldi.

2024-11-04 10:08:20